

INTELLEKTUAL MULK QONUNCHILIGIDA MEROS INSTITUTI

Maxmudov Faxriddin Foziljon o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universitetining magistranti

E-mail: yuristmff@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqola O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik huquqida intellektual mulk huquqlarini meros qilib olish masalasiga bag‘ishlangan. Muallif intellektual huquqlarning ayrim toifalarini meros qilib olish muammosini ko‘taradi: eksklyuziv huquq, shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa intellektual huquqlar. Zamонавиъ fuqarolik huquqida mutlaq huquq ta’rifining xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Keyinchalik, muallif meros b o‘lib o‘tadigan va meros bo‘lmaydigan intellektual huquqlarni ajratadi. Ish doirasida meros mulkiga muallif-merosxo‘rlarning majburiyatlarini kiritish muammosi, ijtimoiy tarmoqlardagi hisoblarning hamda domenlarning vorislik masalasi xalqaro tajribalar orqali ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Meros, vorislik , intellektual mulk huquqi, eksklyuziy huquqlar, shaxsiy nomulkiy huquqlar.

HERITAGE INSTITUTE IN INTELLECTUAL PROPERTY LAW

ABSTRACT

The article is devoted to the issue of inheritance of intellectual property rights in civil law of the Republic of Uzbekistan. The author raises the problem of inheriting certain categories of intellectual rights: exclusive right, personal non-property rights and other intellectual rights. In modern civil law, the features of the definition of absolute law are considered. Subsequently, the author allocates intellectual rights that are inherited and are not inherited. Within the framework of the work, the problem of introducing the obligations of the author-heirs to the inheritance property, the issue of the succession of accounts and domains in social networks are considered through international experiments.

Keywords: inheritance, succession, intellectual property rights, exclusive rights, personal non-property rights.

Intellektual mulkga bo‘lgan huquqlar patentlar, mualliflik huquqlari, tovar belgilari mulk huquqi kabi meros bo‘lib o‘tishi mumkin. Milliy qonunchiligidizda intellektual mulk huquqlarini meros qilib olish bo‘yicha maxsus normativ-huquqiy

hujjatlarni uchratmaymiz - intellektul mulklarga bo‘lgan meros huquqi umumiy qonunchilik normalariga bo‘ysunadi. Shu bilan birga, intellektual faoliyat natijalariga bo‘lgan huquqlar ular ifodalangan moddiy vositaga bo‘lgan real huquqlarga bog‘liq emas. Masalan, vasiyat qiluvchi tomonidan yaratilgan rasm yoki kitobning mulkiy huquqlarning obyekti bo‘lib, ularning pulga aylanishidan vujudga keluvchi huquqlar hisoblanadi. Intellektual mulk huquqini meros qilib olish qonun yoki vasiyatnoma bo‘yicha amalga oshiriladi. Lekin muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlari meros qilib olinmaydi. Ular mualliflik huquqi, nomga bo‘lgan huquq, muallif obro‘sini himoya qilish huquqi, nashr qilish huquqi bilan ifodalanadi.

Vorislar mualliflik huquqini himoya qilish tartib-qoidalarini amalga oshirishi mumkin, ular hech qanday vaqt chegaralari bilan cheklanmagan. Vasiyatnoma mazmunida muallif shaxsiy nomulkiy huquqlarini himoya qilishni vasiyat qilgan shaxsni ko‘rsatishi, shuningdek vasiyatnomaning ijrochisini ham ko‘rsatishi mumkin.

“Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonunining 19-moddasida mualliflik huquqi mualliflik shartnomasi bo‘yicha va meros orqali o‘tkazilishi mumkin. Muallifning asarlarni nashr etish, ko‘paytirish va tarqatish huquqi kabi mualliflik huquqlarini meros qilib olishga ruxsat etiladi. Muallifning merosxo‘rlari muallif tomonidan yaratilgan asardan foydalanish to‘g‘risida shartnoma tuzishga haqli.

Muallifning hayoti davomida tuzilgan shartnoma bo‘yicha asardan foydalanish va tarqatish bilan bog‘liq huquq va majburiyatlar merosxo‘rlarga o‘tadi. Mualliflik huquqi muallifning butun hayoti davomida va vafotidan keyin 70 yil davomida amal qiladi. Shu bilan birga, shuni ta’kidlash kerakki, muddatlarni hisoblash yuridik fakt sodir bo‘lgan yildan keyingi yilning 1-yanvaridan boshlanadi, bu muddatning boshlanishiga asos bo‘ladi⁴⁵.

Mualliflik huquqi ijodkorlik faoliyati natijasi bo‘lgan fan, adabiyot va san’at asarlaridan foydalanish, tarqatish bilan bog‘liq bo‘lgan huquqiy munosabatlarni, asarning maqsadi va ahamiyatidan, shuningdek, ifodalananish usulidan qat’i nazar tartibga soladi. "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida" gi qonunining 35-moddasiga ko‘ra, mualliflik huquqi muallifning butun hayoti davomida va uning vafotidan keyin yetmish yil davomida amal qiladi, hammualliflikda esa mualliflarning butun hayoti davomida va hammualliflar orasida eng uzoq umr ko‘rgan oxirgi shaxs vafot etganidan keyin yetmish yil davomida amal qiladi.

Shuningdek, agar asar muallifning vafotidan keyin birinchi marta e’lon qilisa, asarga bo‘lgan mualliflik huquqi asar e’lon qilinganidan keyin yetmish yil davomida amal qiladi.

⁴⁵ <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>

Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalarini huquqi merosxo ‘rlarga o‘tadi. Meros, shuningdek, sanoat mulki obyektlariga bo‘lgan mutlaq huquqlarni ham o‘z ichiga oladi. Ixtiroga bo‘lgan huquq ixtiroga patent, foydali modelga - foydali model patenti, sanoat namunasiga - sanoat namunasiga patent bilan tasdiqlanadi.

Ixtiroga patent yigirma yil, foydali modelga besh yil va sanoat namunasiga patent o‘n yil amal qiladi⁴⁶. Intellektual mulk obyektiga nisbatan mutlaq huquqlar egasiga tegishli mulkiy huquqlar, huquq egasi tomonidan shartnoma yoki bitim bo‘yicha boshqa shaxsga to‘liq yoki qisman o‘tkazilishi mumkin.

Shuningdek, bu mutlaq huquqlar egasi bo‘lgan fuqaro vafot etganda meros bo‘lib va mutlaq huquqlar egasi yuridik shaxs bo‘lsa, u qayta tashkil etilganda huquqiy vorislik tartibida o‘tadi. Qonunchilikka muvofiq, sananot mulki obyektlari: ixtiolar, foydali modellar, sanoat namunalari;

- seleksiya yutug‘lari;
- kompyuter dasturlari, ma’lumotlar bazalari;

ularga bo‘lgan huquqlar ular yaratilganda yuzaga keladigan va davlat ro‘yxatidan o‘tishni talab qilmaydigan mualliflik asarlari: adabiy, badiiy, musiqiy, audiovizual, xoreografik; ilmiy ishlar va turdosh turdosh huquqlar: ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotning ko‘rsatuvlari yoki eshittirishlari meros huquqi obyekti bo‘lishi mumkin.

Intellektual mulk huquqida meros instituti o‘ziga xos xususiyatlarga ega, intellektual mulkda meros bo‘lib o‘tuvchi huquqlar hamda meros sifatida o‘tkazilmaydigan huquqlar mavjud. Qonunchilikka muvofiq, muallifning mulkiy huquqlari meros bo‘yicha o‘tadi. Shaxsiy nomulkiy huquqlar esa, aksincha, meros bo‘yicha o‘tmaydi. Mutlaq huquqlar sifatida huquqning egalariga qonunda ruxsat etilgan barcha harakatlarni bajarishni ta’minlaydigan va ayni vaqtida barcha uchinchi shaxslarga ko‘rsatilgan harakatlarni huquq egalarining roziligesiz bajarishni man etadigan subyektiv huquqlardir. Shaxsiy nomulkiy huquqlar esa bu mulkiy mazmunga ega bo‘lmagan, obyekt yaratuvchisini ijodiy maqomini belgilovchi va ushbu maqomdan kelib chiqadigan huquqlarni mustahkamlashga va himoya qilishga qaratilgan mutlaq huquqlari bo‘lib, u faqat huquq egasiga tegishli va huquq egasidan begonalashtirilishi bo‘lmaydigan huquqlar hisoblanadi⁴⁷. Masalan, Abdulla Qodiriy asarlari o‘z farzandlariga mulkiy huquq sifatida o‘tgan, lekin Abdulla Qodiriy shaxsiy nomulkkiy huquqlarni o‘zida saqlab qolgan. Ya’ni hech kim O‘tgan kunlar asarini muallifi sifatida Abdulla Qodiriy nomini begonalashtirib, o‘zlashtira olmaydi. Mulkiy

⁴⁶ <https://lex.uz/docs/-76671>

⁴⁷ Интеллектуал мулк. Дарслик. Масъул муҳаррирлар: ю.ф.д., проф., О.Оқюлов, ю.ф.ф.д. (PhD), доцент Н.Э.Гафурова // Муаллифлар жамоаси. –Т.: ТДЮУ нашриёти , 2019. – 588 бет.

huquqlarni shartnama asosida o'tkazish yoxud ularni universal huquqiy vorislik tartibida o'tishi muallif huquqlarini va begonalashtirilmaydigan va boshqalarga o'tkazdirilmaydigan boshqa shaxsiy huquqlarni cheklanishiga sabab bo'lmaydi. Bunday huquqlarni o'tkazish yoki cheklash to'g'risida shartnama shartlari o'z-o'zidan xaqiqiy emas. Ushbu qoida ijodiy faoliyat natijasiga mutlaq huquq ijodkor muallifga tegishli bo'limgan barcha hollarda qo'llaniladi.

Boshqa shaxslarga o'tkazilmaydigan, begonalashtirilmaydigan va faqat muallifga, ya'ni ijodiy faoliyat natijasini yaratuvchiga tegishli bo'lgan mutlaq - absolyut huquqlar doirasi, turlari va mazmuni Fuqarolik kodeksida belgilab qo'yilgan. Intellektual mulk obyektiga nisbatan mutlaq huquqlar fuqarolik muomilasida bir subyektdan boshqa subyektga o'tish miqdorlaridan qat'iy nazar, ijodkor muallif intellektual mulk obyektiga nisbatan mualliflik huquqini saqlab qoladi. Ya'ni mutlaq huquqlarni bir shaxslardan boshqa shaxslarga o'tish faktlari muallifni huquqiy maqomiga ham, uning faqat o'ziga tegishli bo'lgan, undan begonalashtirilmaydigan nomulkiy huquqlari mazmuniga ham hech qanday darajada ta'sir ko'rsatmaydi.

Merosxo'r muallif/mualliflik huquqi egasi vafot etganidan keyin merosxo'r intellektual obyektlarni quyidagi tartibda tasarruf etishi mumkin:

- asarni nashr qilishi (masalan, kitob nashr etish), agar bu muallifning shaxsiy kundaliklarida, vasiyatnomalarida, xatlarida ko'rsatilgan irodasiga zid bo'lmasa;
- vafot etgan muallif tomonidan o'z xizmat vazifalari doirasida yaratilgan ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, seleksiya yutug'i, EHMLar uchun haq olish;
- musiqiy yoki audiovizual asarni takrorlash va efirga uzatish, nashr qilish uchun haq olishi;
- badiiy, grafik, haykaltaroshlik, amaliy, adabiy, musiqa san'ati asarini keyinchalik qayta sotish uchun haq (foizli chegirmalar shaklida) olish, agar joriy bitimning narxi oldingi sotuv narxidan oshsa, shartnama shartlarini qayta kelishishi;
- asarni ko'paytirish, sotish yo'li bilan tarqatish, nuxxalarini yaratish, eksport qilish, ijaraga berish va litsenziya va begonalashtirish shartnomalarini tuzishi;
- boshqa shaxslarga yuqorida tavsiflangan harakatlarni taqiqlashi;
- mualliflik huquqini, muallifning nomini va asarning daxlsizligini himoya qilishi, buning uchun sudga murojaat qilish va huquqlar buzilganligi uchun pul kompensatsiyasini undirish;
- mualliflik huquqi bilan himoyalangan asarni boshqarishni rad etishi, agar bunday huquq vafot etgan mualliflar jamiyatiga o'tgan bo'lsa;
- asarni qayta ishslashga masalan, romandan ssenariy yaratish, uni boshqa tilga tarjima qilishga ruxsat berishi;

•ustav kapitaliga intellektual mulkni qo'shish yoki mulkiy huquqlarni garovga qo'yishi kabi huquqlarga ega bo'ladi. Muallifning merosxo'rlari ko'rsatilgan huquqlarni himoya qilishga haqlidir. Merosxo'r bunday huquqlarni faqat huquqiy himoyaning qolgan muddati tasarruf etishi mumkin, shundan so'ng intellektual faoliyat natijasi jamoat mulkiga o'tadi. Muallifning merosxo'rlari bo'limgan taqdirda, uning shaxsiy nomulkiy huquqlarini himoya qilish maxsus vakolatli davlat organi zimmasiga yuklanadi⁴⁸.

Shuningdek, merosxo'r quyidagi ishlarni qilishga haqli emas:

- muallifning ismini o'zgartirish, asarni yoki texnik yechimni o'ziniki sifatida o'tkazish;
- ishning nomini, seleksiya yutug'ini o'zgartirish;
- asar matniga tuzatishlar va o'zgartirishlar kiritish;
- asardagi muallifning haqiqiy ismini uning taxallusiga yoki aksincha o'zgartirish, anonim tarzda nashr etish.

Er-xotinning huquqlarini meros qilib olish masalasi to'xtalsak, agar intellektual faoliyat natijasi turmush o'rtoqlardan biri tomonidan yaratilgan bo'lsa, mutloq huquq qonun bo'yicha ikkinchi turmush o'rtog'iga o'tmaydi, lekin ulardan foydalanishdan olingan daromad masalan, litsenziya shartnomalari bo'yichabirgalikdagi mulkdir. Birgalikda sotib olingan mulkka, shuningdek, begonalashtirish shartnomasi (boshqa shaxs tomonidan yaratilgan) bo'yicha olingan intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlar kiradi. Bunday holda, turmush o'rtog'i merosdagi ulushni talab qilishi mumkin.

San'at va adabiyot asarlari bilan bog'liq holda, turmush o'rtog'i vafotidan keyin olingan huquqlarni farqlash ko'pincha qiyin. Shunday qilib, turmush o'rtog'i rasmlar va qo'lyozmalarni moddiy vositada meros qilib oladi, lekin u ularni tasarruf etish - nashr etish va tarqatish, nusxalarini sotishdan foyda olish huquqiga ega emas. Bunday qonunchilik normasi nafaqat masalan, Rossiyada va boshqa mamlakatlarda, Fransiyada ham mavjud. Turmush o'rtog'i (turmush o'rtog'i) marhumning vasiyatnomasida ko'rsatilgan xohishiga ko'ra ishlashga mutlaq huquqlarga ega bo'lishi mumkin⁴⁹.

Amaliyotda meros ishi ochishda notariuslar tomonidan huquqni qo'llash amaliyoti bilan bog'liq muammolar hozirda vujudga kelib turibdi. Xususan, notariuslar tomonidan meros qoldiruvchining vorislardan marhum muallifligida yaratilgan ijod namunalariga nisbatan mualliflik huquqini tasdiqlovchi guvohnoma talab etilishi, aks holda vorislarga meros qoldiruvchiga tegishli bo'lgan ijod namunalariga nisbatan

⁴⁸ <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>

⁴⁹ <https://ezybrand.ru/blog/nasledovanie-intellektualnyh-i-avtorskih-prav/#:~:text=Наследование интеллектуальных прав>

mulkiy huquqlar meros tariqasida o'tmasligi ta'kidlab kelingan. Ushbu holatlarni bartaraf etish uchun 2022-yil 3-fevralda 7/32-5/219-sonli Adliya vazirligi tomonidan Ko'rsatma chiqarilgan bo'lib, ushbu ko'rsatmada ushbu sohadagi huquqni qo'llash amaliyoti notariuslarga tushintirilgan. Ya'ni mualliflik huquqi intellektual mulkning boshqa obyektlariga qaraganda o'ziga xos farqli jihatlarga ega bo'lib, ushbu huquq sanoat mulki obyektlari ixtiro, foydali model, sanoat namunasi va boshqalar kabi ro'yxatdan o'tkazilishini yohud ushbu huquqni tasdiqlash uchun guvohnoma berilishini talab qilmasligi ko'rsatma berilgan. Bu mualliflik huquqi bo'yicha universal xalqaro-huquqiy hujjat Adabiy ba badiiy asarlar muhofazasi to'g'risidagi Bern konvensiyasining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Ya'ni fan, adabiyot va san'at asariga mualliflik huquqi uni yaratish fakti bo'yicha yuzaga kelishi ko'rsatma berilgan.

Agar bir nechta hammualliflar yoki merosxo'rlar bo'lsa, Fuqarolik kodeksida muallifning mulkiy huquqlari meros bo'yicha o'tishi belgilangan. Muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlari esa meros obyekti hisoblanmaydi. Muallifning merosxo'rlari ko'rsatilgan huquqlarni himoya qilishga haqlidir. Merosxo'rlarning ushbu huquqlari muddat bilan cheklanmaydi. Agar muallifning merosxo'rlari bo'lmasa, uning shaxsiy nomulkiy huquqlarini himoya qilish maxsus vakolatli davlat organi zimmasiga yuklanadi. Muallif vafotidan so'ng bir necha merosxo'rlar mavjud bo'lsa, qonunchiligidan muvofiq, asardan foydalanish tartibi ular o'rtaqidagi kelishuvda belgilanadi. Bunda merosxo'rlardan hech biri boshqa merosxo'rlarning asardan foydalanishini yetarli asoslarsiz taqiqlashga haqli emas.

Bir nechta mualliflar bilan intellektual mulk merosi yanada murakkablashadi. Agar, masalan, mualliflardan biri kitobning bir nechta bo'limlarini yozgan bo'lsa va qolganini boshqa muallif yozgan bo'lsa, u holda mulk bo'linishi mumkin. Agar ijodiy ish natijasini bo'lish mumkin bo'lmasa, tirik hammualliflar teng ulushlarda qoladilar va merosxo'rlar hech narsa olmasligi muammosi yuzaga keladi. Agar bir nechta merosxo'rlar bo'lsa, ularning ulushining miqdori meros huquqi to'g'risidagi guvohnomada ko'rsatilishi kerak. Merosxo'r o'z huquqlaridan boshqa merosxo'rlar foydasiga ham voz kechishi mumkin. Odatda, meros qonuniy ravishda teng ulushlarda taqsimlanadi, ammo alohida shartnomaga ko'ra, merosxo'rlar boshqa miqdordagi ulushlarni kelishib olishlari mumkin. O'zaro kelishuv bo'limgan taqdirda, merosxo'rlar o'rtaqidagi nizo sudda ko'rib chiqiladi. Merosning teng bo'limgan ulushlari muallif/mualliflik huquqi egasi tomonidan vasiyatnomada belgilanishi mumkin.

Agarda intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquq egasi yuridik shaxs bo'lsa, yuridik shaxs qayta tashkil etilganda, birlashganda, qo'shib olinganda, qayta tuzilganda mutlaq huquq huquqiy vorislik tartibida yangi vujudga kelgan yuridik shaxsga o'tadi. Yuridik shaxs bo'linish, ajralib chiqish yo'li bilan qayta tashkil

etilganda mutlaq huquqni kimga o‘tishi taraflarni o‘zaro kelishuv bilan, bunga erishilmagan taqdirda esa, sud tomonidan belgilanadi. Mutloq huquqni meros va huquqiy vorislik tartibida o‘tish fakti notarius tomonidan beriladigan meros guvohnomasi asosida rasmiylashtiriladi. Agarda obyektga nisbatan huquqiy muhofaza hujjati bo‘lsa, vakolatli davlat idorasi tomonidan mutlaq huquqni yangi egasi nomiga hujjatlar rasmiylashtiriladi va tegishli davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladi.

Kompyuter dasturiga nisbatan mutlaq huquqlar ham huquq egasi vafotidan keyin meros tartibida qonuniy merosxo‘rlarga yoki vasiyat asosida boshqa shaxslarga o‘tadi. Vujudga keladigan munosabatlarga nisbatan Fuqarolik kodeksining vorislik haqidagi belgilangan normalar qo‘llaniladi. Kompyuter dasturiga mutloq huquqlar egasi yuridik shaxs bo‘lsa, bunday yuridik shaxs qayta tashkil etilgan hollarda (uni boshqa bir yuridik shaxs bilan qo‘sib yuborish, qo‘sib olish, bo‘lish, ajratib chiqarish, o‘zgartirish – FKning 49-moddasi) mutloq huquq vorislik tartibida yangi tashkil etilgan yuridik shaxsga o‘tadi. Qayta tashkil etishning bo‘lish, ajratib chiqarish, o‘zgartirish hollarida yangi vujudga kelgan yuridik shaxslarning qaysi biriga mutloq huquq o‘tishi ularning o‘zaro kelishuvi asosida, bunday kelishuvga kelishilmagan taqdirda sud tomonidan belgilanadi.

Seleksiya yutug‘larining meros bo‘lib o‘tishi masalasiga e’tibor qaratsak, seleksiya yutug‘lariga patentga bo‘lgan huquq muallifga (hammualliflarga) yoki uning (ularning) merosxo‘riga (merosxo‘rlariga) tegishli. Ko‘rinib turibdiki, patent olish huquqiga ega bo‘lgan eng asosiy shaxslar bu mualliflar va ularning merosxo‘rlaridir. Shu bilan birga, xizmat tartibida yaratilgan seleksiya yutug‘iga nisbatan patent olish huquqi, agar shartnomada boshqa qoida belgilanmagan bo‘lsa ish beruvchiga tegishliligi qayd etilgan. Lekin ko‘pchilik holatlarda Adliya vazirligiga topshirilayotgan talabnomalarda talabnomalar seleksiya yutug‘ini yaratgan mualliflarning nomlariga berilayotganligi, bu esa qonun hujjatlarini to‘g‘ri tushunmaslik ekanligini anglatadi. Shu bilan birga, patentda muallifning nomini va uning muallifligini ko‘rsatish amaliyotda bir vaqtning o‘zida patent egasi sifatida uni e’tirof etishga olib kelishi mumkin.

Xalqaro tajribada intellektual mulklarning meros bo‘lib o‘tishi masalasiga to‘xtalsak, Rossiya Federatsiyasida intellektual mulk obyektlari vasiyatnoma yoki qonun bo‘yicha meros huquqi o‘tishi mumkin. Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik Kodeksining 1112-moddasiga binoan merosxo‘rlik intellektual faoliyat natijalariga bo‘lgan mutlaq huquqlarni, shuningdek, boshqa mulkiy huquqlarni o‘z ichiga oladi: amal qilish huquqi, muallifiga tegishli bo‘lgan asari uchun haq olish huquqi, shuningdek, mualliflar, ijrochilar, fonogramma ishlab chiqaruvchilar o‘z asarlarini

shaxsiy maqsadlarda takrorlaganliklari uchun va fonogrammalarni tijorat maqsadlarida omma oldida ijro etganliklari uchun haq olish⁵⁰.

Eksklyuziv meros huquqlari umumiy tartibda vasiyatnama yoki qonun bilan o‘tkaziladi. Shuni yodda tutish kerakki, mutlaq huquqlarning ta’siri vaqt bo‘yicha cheklangan va merosga kirgandan so‘ng, meros qoldiruvchining merosxo‘rlari ularga faqat qolgan muddatga ega bo‘lishadi. Va keyin intellektual mulk obyektlari umumiy mulkka aylanadi, ular ruxsatsiz va haq to‘lamasdan erkin foydalaniladi. Shunday qilib, mualliflik huquqi muallif vafot etgan kundan boshlab 70 yil, tegishli - ijro etilgan kundan boshlab 50 yil va patent huquqlari - ro‘yxatga olish uchun ariza berilgan kundan boshlab 20 yil davomida amal qiladi.

Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik Kodeksining 1229-moddasiga ko‘ra, agar bir nechta merosxo‘rlar bo‘lsa, mutlaq huquqlarga nisbatan ular birgalikda egalik qiladilar: ular birgalikda tasarruf etadilar. Ammo ular yozma shartnoma tuzish orqali boshqacha tartib o‘rnatishlari mumkin⁵¹.

Qozog‘istonda ham intellektual mulk huquqlarining meros bo‘lib o‘tishi, O‘zbekiston hamda Rossiya qonunchiligiga o‘xshashligini ko‘rishimiz mumkin. Qozog‘iston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida" gi Qonuning 30-moddasida mualliflik huquqi mualliflik huquqi shartnomalari va meros orqali o‘tkaziladi⁵².

Mualliflik huquqini meros qilib olish qonun yoki vasiyatnama bo‘yicha sodir bo‘ladi. Lekin muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlari meros qilib olinmaydi. Ular mualliflik huquqi, nomga bo‘lgan huquq, muallif obro‘sini himoya qilish huquqi, nashr qilish huquqi bilan ifodalanadi. Vorislар mualliflik huquqini himoya qilish tartib-qoidalalarini amalga oshirishi mumkin, ular hech qanday vaqt chegaralari bilan cheklanmagan. Vasiyatnama mazmunida muallif shaxsiy nomulkiy huquqlarini himoya qilishni vasiyat qilgan shaxsni ko‘rsatishi, shuningdek vasiyatnomaning ijrochisini ham ko‘rsatishi mumkin⁵³.

Mualliflik huquqi muallifning butun hayoti davomida va vafotidan keyin 70 yil davomida amal qiladi. Shu bilan birga, shuni ta’kidlaymanki, muddatlarni hisoblash yuridik fakt sodir bo‘lgan yildan keyingi yilning 1-yanvaridan boshlanadi, bu muddatning boshlanishiga asos bo‘ladi.

⁵⁰ ["Гражданский кодекс Российской Федерации \(часть третья\)" от 26.11.2001 N 146-ФЗ \(ред. от 01.07.2021\)](#)

⁵¹ ["Гражданский кодекс Российской Федерации \(часть третья\)" от 26.11.2001 N 146-ФЗ \(ред. от 01.07.2021\)](#)

⁵² 7. Закон Республики Казахстан от 10 июня 1996 года № 6-І «Об авторском праве и смежных правах» (с изменениями и дополнениями по состоянию на 20.06.2018 г.)

// https://online.zakon.kz/document/?doc_id=1005798

⁵³ 8. Бурибаев Е.А. Актуальные проблемы принятия наследства // <https://www.zakon.kz/4667742-aktualnye-problemy-prinyatiya.html>

Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalarini loyihalash huquqi merosxo‘rlarga o‘tadi. Meros, shuningdek, sanoat mulki obyektlariga bo‘lgan mutlaq huquqlarni ham o‘z ichiga oladi.

Ixtiroga bo‘lgan huquq ixtiroga patent, foydali modelga - foydali model guvohnomasi, sanoat namunasiga - sanoat namunasiga patent bilan tasdiqlanadi. Ixtiroga patent 20 yil, foydali model guvohnomasi 5 yil va sanoat namunasiga patent 5 yil amal qiladi.

Domenlar va ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntlarni(hisoblar)nining vorislik tartibi.

Hozirda amaliyotda domenlar hamda ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntlarni meros qilib olish tartibi va huquqiy yechimi dolzarb masalalardan biridir. Domen nomini meros qilib olish masalasi hali ham juda munozarali va bahsli. Bir tomondan, qonun chiqaruvchi domen nomini huquq obyekti sifatida tan olmaydi, boshqa tomondan, savol tug‘iladi - egasi vafot etganidan keyin domen nomi bilan nima qilish kerak?

Domen nomi huquq obyekti sifatida tan olinmaganligi sababli, uni merosxo‘rlarga o‘tkazish mexanizmi ham mavjud emas. Uning yo‘qligi egasining o‘limidan keyin uchinchi shaxslar tomonidan domenni egallab olish shaklida juda noxush oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Domen nomi huquq obyekti emas, lekin ba’zi hollarda u meros qilib olinishi mumkin. Masalan, "REG.RU" va "RU-CENTR" kabi ro‘yxatga oluvchilar domen nomini merosxo‘rlarga ma’lum hujjatlar to‘plamini taqdim etishi sharti bilan o‘tkazish tartibini ta’minlaydi⁵⁴.

Albatta, barcha ro‘yxatga olish idoralari o‘z mijozlari uchun bunday sharoitlarni ta’minlamaydi va merosxo‘rlar o‘z huquqlarini sudda himoya qilishga harakat qilishlari mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntlar masalasida to‘xtalsak, ijtimoiy tarmoqlar intellektual mulk obyektiga kiritilmagan, ularni muhofaza qilish tartibi aniqlashtirilmagan, lekin AQSh va Germaniya kabi davlatlarda ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntlar bo‘yicha hujjatlar qabul qilingan hamda sud amaliyotlari vujudga kelgan. Akkauntlardagi himoya qilinishi lozim bo‘lgan narsa sifatida hisob ma’lumotlari qaraladi. Chunki hisoblarda kuzatuvchilar, muallifga tegishli suratlar, videolar va akkauntni yuritishning o‘ziga xos yo‘llari mavjud.

Germaniyada bu masalani qonunchilik bilan tartibga solish tizimi yo‘q, lekin Evropada hisobni meros qilib olish bo‘yicha birinchi sud pretsedenti mavjud. Sud ishining syujeti shundan iborat ediki, marhum qizning ota-onasi Facebook ijtimoiy tarmog‘iga marhumning akkauntini blokdan chiqarish, uning do‘stlari iltimosiga ko‘ra

⁵⁴ <https://www.planeta-zakona.ru/blog/nasledovanie-akkauntov-v-sotsialnykh-setyakh.html/>

esdalik maqomiga o'tkazish iltimosi bilan murojaat qilgan. Tarmoq vakillari ma'lumotlar maxfiyligini ta'kidlab, so'rovni rad etdi. Shundan so'ng, ota-onalar Facebookni akkauntini blokdan chiqarishga majbur qilishni talab qilib, Germaniya sudiga murojaat qilishdi. Ish Germaniya Oliy sudiga yetib bordi va u qizning ota-onasini qo'llab-quvvatladi va ularning talablarini qondirdi. Sud o'z qarorini marhumning ma'lumotlarining maxfiyligi buzilmasligi bilan asosladi, chunki ma'lumotlarni himoya qilish qonuni faqat tirik odamlarga tegishli deb asoslagan⁵⁵.

Domenlar hamda ijtimoiy tarmoqlardagi hisoblarga huquqiy vorislik masalasi hozirda amaliyatda o'r ganilayotgan masala hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi
3. "Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni
4. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonuni
5. "Seleksiya yutuqlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni
6. "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni
7. Adliya vazirligi tomonidan 2004-yil 20-mayda 1361-tartib raqami bilan ro'yxatga olingan Sanoat namunasiga O'zbekiston Respublikasi patentini berish haqidagi talabnomani tuzish, topshirish va ko'rib chiqish qoidalari
8. Sudlar tomonidan meros huquqiga oid qonunchilikning qo'llanilishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi plenum qarori
9. ["Гражданский кодекс Российской Федерации \(часть четвертая\)" от 18.12.2006 N 230-ФЗ \(ред. от 07.10.2022\)](#)
10. Закон Республики Казахстан от 10 июня 1996 года № 6-І «Об авторском праве и смежных правах» (с изменениями и дополнениями по состоянию на 20.06.2018 г.)
11. [Парижская конвенция по охране промышленной собственности от 20 марта 1883 года](#)
12. Локарнское соглашение об утверждении Международной классификации промышленных образцов (Локарно, 8 октября 1968 г)
13. Council Regulation (EC) No 6/2002 of 12 December 2001 on Community designs

⁵⁵ <https://www.planeta-zakona.ru/blog/nasledovanie-akkauntov-v-sotsialnykh-setyakh.html/>

14. Интеллектуал мулк. Дарслик. Масъул муҳаррирлар: ю.ф.д., проф., О.Оқюлов, ю.ф.ф.д. (PhD), доцент Н.Э.Гафурова // Муаллифлар жамоаси. –Т.: ТДЮУ нашриёти , 2019. – 588 бет. 322.
15. Федоров А. А. Правовая охрана проектных решений в Украине: монография / А. А. Федоров. – Одесса: Бахва, 2015. – 172 с.
16. Бурибаев Е.А. Актуальные проблемы принятия наследства // <https://www.zakon.kz/4667742-aktualnye-problemy-prinyatiya.html>
17. 2022-yil 3-fevralda 7/32-5/219-sonli Adliya vazirligining notarislarga ish yurituv bo'yicha Ko'rsatmasi

Web-saytlar:

<https://www.lex.uz>
<https://www.norma.uz>
<https://www.wipo.int>